



## KON KORXONALARIDA ISHLATILADIGAN KONVEYER TRANSPORTI

**<sup>1</sup>Ziyadov Nusrotullo Raxmotullayevich**

Toshkent davlat texnika universiteti tayanch doktoranti,

**<sup>2</sup>Umarqulov Sarvar Begimqul o'g'li**

Toshkent davlat texnika universiteti talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7430740>

### ARTICLE INFO

Received: 29<sup>th</sup> November 2022

Accepted: 11<sup>th</sup> December 2022

Online: 12<sup>th</sup> December 2022

### KEY WORDS

*Qayta ishslash, metallurgiya, kombinat, konveyer, baza, kon, zaxira, mahsulot.*

Respublikamizda tog'-kon va qayta ishslash korxonalari quvvatlarini oshirish maqsadida mineral-xomashyo bazasidan foydalanish va qayta ishslash samaradorligini oshirish, investitsiyalarni faol jalb etish bo'yicha tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Kon-metallurgiya tarmog'ining yirik korxonalar — "Navoiy kon-metallurgiya kombinati" DK (keyingi o'rinnarda — "Navoiy KMK" DK), "Olmaliq kon-metallurgiya kombinati" AJ (keyingi o'rinnarda — "Olmaliq KMK" AJ) va "O'zbekiston metallurgiya kombinati" AJda strategik turdag'i mahsulotlar, jumladan oltin, kumush, mis, rux va po'lat prokati kabi mahsulotlar, shuningdek 20 dan ortiq turdag'i boshqa sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilmoqda. So'nggi ikki yil davomida kon-metallurgiya tarmog'ining yirik korxonalarini jadal rivojlantirish, modernizatsiya qilish va ishlab chiqarishni kengaytirishga qaratilgan uzoq muddatli dasturlar qabul qilindi. 2026-yilgacha "Navoiy KMK" DKda mahsulot ishlab chiqarish hajmini 30 foizga, "Olmaliq KMK" AJga 2,9 mlrd. AQSh

### ABSTRACT

*Ushbu maqolada tog'-kon korxonalari, kon korxonalarida ishlatiladigan konveyer transporti to'grisida ma'lumot berilgan.*

dollari miqdorida investitsiyalar jalg' etish va 2023-yilgacha mis ishlab chiqarish hajmini 28 foizga, rux ishlab chiqarish hajmini 75 foizga oshirish ko'zda tutilgan. Shu bilan birga, kon-metallurgiya tarmog'ining yirik korxonalaridagi mavjud boshqaruv tuzilmasi, foydali qazilmalar zaxiralarining hisobini yuritish va baholash uslublari, moliyaviy hisobotlarning eskirgan shakllari ishlab chiqarishning o'sishiga va investitsiyaviy jozibadorlikning oshishiga to'sqinlik qilmoqda.

Konveyer transporti transport turi sifatida allaqachonlardan beri ishlatlishiga qaramasdan karerlarda yosh transport turi hisoblanadi. Konveyer metall formalardan tuzilgan bo'lib, tashuvchi a'zosi sifatida rezina lenta (lentali konveyer), kurakli zanjir (kurakli konveyer), plastinkalar (plastinkali konveyer) yoki ariqcha shakldagi (vibratsiyali konveyer) a'zolari ishlatiladi. Karerlardi yumshoq, maydalangan (bo'lak o'lchami 400 mm gacha) qattiq va yarim qoyatoshlarni tashish uchun lentali konveyerlar keng qo'llanilmoqda. Ularning ish prinsipi



shundan iboratki: konveyer lentinaida tog'jinslari to'ldirilib baraban yuritgich yordamida tortish bilan harakatga keltirilib tashiladi. Konveyer lentinaiga nagruzkani kamaytirish uchun qo'shimcha tortish a'zolari, po'lat arqon, zanjir, telejkalar qo'llaniladi. Bunday hollarda lenta faqat kon massasini joylashtiruvchi idish vazifasini o'taydi.

Konveyer (ing. conveyor — tashuvchi) — to'kma, donali, bo'lak-bo'lak yuk yoki buyumlarni, asosan, qisqa, ba'zan uzoq, masofaga uzluksiz va bir xil maromda tashiydigan mashina. Vazifasiga ko'ra, transport (yuk tashiydigan) va texnologik (texnologik operatsiyalarni o'zaro bog'laydigan) xillarga bo'linadi. Tortish organi bo'lgan va tortish organi bo'lмаган turlari bor. Elektrik yuritma bilan harakatlanadigan mexanik Konveyer keng tarqalgan. Bunday Konveyerlarning tortish organlari lenta, zanjir va kanatdan iborat bo'lib, ular yordamida buyum yoki yuklar tashiladi. Yuk tashish organlarining turiga ko'ra, dasturli boshqariladigan lentali, ko'raqli, plastinkali, osma, shuningdek, kovshli, aravachali va boshqa turlarga; tortish organi bo'lмаган vintli (shnekli), inersion (chayqaluvchi, tebranma), rolikli (rolgang), odimlovchi (quymachilik, yig'uvchi) va boshqa turlarga bo'linadi. Lentali konveyer bilan, asosan, donali yuklar tashiladi. Zanjirga biriktiriladigan moslamaning tuzilishiga qarab, zanjirli konveyerlar plastinkali, ko'rakchali, ksvshli va aravachali bo'ladi. Plastinkali konveyerlar, asosan, bo'lak-bo'lak materiallarga mo'ljallangan bo'lib, yukni qiya yunalishda tashishga imkon beradi, mayda ko'mir va rudalarni surish uchun ishlataladi. Kovshli va aravachali Konveyerlar ayrim korxonalarda (metalluriya va kimyo kombinatlarida),

asosan, to'kma yuklarni tashish uchun ishlataladi. Sement, shag'al, qum, mayda ko'mir kabilarni yaqin masofaga tashish uchun vintli Konveyerlar qo'llaniladi. To'p qilib yig'ilgan yoki yashiklarga joylangan yuklarni pastga tushirish uchun rolikli (gravitatsion) konveyerdan foydalaniladi. Bunday konveyerlarda yuk o'z og'irligi bilan pastga to'shadi. Inersion Konveyer to'kma kjni gorizontal va qiya yo'nalishda qisqa masofaga tashish uchun mo'ljallanadi. Bunday konveyerda yuk inersiya kuchi hisobiga harakatlanadi. Bo'lardan tashqari, yuklar suyuqliklar bilan birga nasoslar yordamida quvur yoki novlarda harakatlanadigan gidravlik, yuklar yoki buyumlar ventilyatorlar yordamida hosil qilinadigan bosimlar farqi hisobiga quvurlarda harakatlanadigan pnevmatik konveyerlar bor. Maxsus ishlarga mo'ljallangan konveyerlar elevator va eskalator deb ataladi. Uzlikli va uzluksiz transporti bir biri bilan o'zviy bog'liq transport turi hisoblanadi. Ekskavator (lotincha: yexsauo — o'yaman, qaziyman) — tog' jinslari va yerni (gruntni) qazish, ularni transport vositalariga yuklash yoki to'plash uchun mo'ljallangan qazish yuklash mashinasи. Yer qazish mashinalarini yaratish g'oyasini 16-asrda Leonardo da Vinci Ekskavator draglayn sxemasi tarzida ilgari surdi. Ekskavatorning chizmasini birinchi marta rus muhandisi A.A. Betankur 19-asr 20-yillarida ishlab chiqqan. 1834-yilda AQSH da V. Otisom natent olgan; 1910-yilda birinchi elektr dvigatelli Ekskavator, 1912-yilda dizel yonilg'isida ishlaydigan, 1920-yillarda relsda harakatlanib, to'la buriladigan Ekskavator ishlab chiqarildi. Keyinchalik Ekskavatorning tuzilishi takomillashtirib borildi.



Ekskavator bir kovshli (uzluksiz yoki sikli ishlaydigan) va ko'p kovshli (uzluksiz ishlaydigan) xillarga bo'linadi. Ekskavator ning asosiy qismlari; kovsh (cho'mich), sharnirli quloch, kuch qurilmasi (dvigatel), buriladigan korpus va yurish qismi (gusenitsa, g'ildiraklar). Bir kovshli Ekskavator ning ish sikli kon jinsi yoki gruntni kesish yoki qazish, to'lgan kovshni bo'shatish va kovshni zaboyga qaytarishdan iborat. Ekskavator ning quvvati, turi va ish sharoitiga qarab, ish sikli 15—80 sek davom etadi. Yurish qismlarining turiga ko'ra, gusenitsali, g'ildirakli, odimlovchi, relsda yuradigan, suvda suzadigan, g'ildirakligusenitsali; kuch qurilmasining turiga ko'ra, bir dvigatelli va ko'p dvigatelli; ichki yonuv dvigatelli, elektr, gidravlik, pnevmatik va aralash dvigatelli; boshqarish turiga qarab, qo'lda, gidravlik, pnevmatik, elektr bilan va aralash boshqariladigan; ish organining turiga ko'ra, to'g'ri va teskari kurakli, draglaynli, greyferli va boshqa Ekskavatorlar bo'ladi.

Karerlardagi konveyrlar transporti joylashishi va mo'ljaliga qarab zaboydag'i, to'plovchi, yuk ko'taruvchi, magistral va ag'darma turlariga bo'linadi.

**Zaboy konveyerlari** pog'ona ishchi maydonchasiga joylashtirilib, kon massasini ekskavatordan to'plovchi konveyrgacha tashishga mo'ljallangan. Karerlarda zaboy fronti sekin-asta siljib borganligi uchun zaboy konveyer seksiyalari maxsus texnika turbodozerlar yordamida yoki gusenitsalik, qadamlovchi mexanizmlar yordamida suriladi.

**To'plovchi (uzatuvchi) konveyerlar** karerning yon qismida joylashgan bo'lib, ular bir yoki bir necha zaboy konveyrlaridan yuk ko'taruvchi konveyerga tashishga mo'ljallangan. To'plovchi konveyrlar zaboy konveyrlari ortidan o'z o'qiga parallel yo'nalishda gusenitsali yoki rels yo'lli izlarda harakatlanadi.

Yuk ko'taruvchi konveyerlar ishchi bo'lmanan yoki vaqtinchalik ishchi bo'lmanan karer qismida (transheyalarda yoki er osti qiya lahimlarida) joylashgan bo'lib, karer ishchi qismidan kon massasini yuqoriga tashishga mo'ljallangan. Yuk ko'taruvchi konveyer yukni to'plovchi konveyerdan olib, oddiy konveyrlarda 18° burchak ostida va maxsus konveyerlarda 50° gacha qiyalikda karer borti bo'ylab er yuzasiga ko'taradi. Yuk ko'taruvchi konveyer ancha yuqori yuritgchi va konstruksiyaga ega bo'lib bir erda muqim o'rnatilishga mo'ljallangan. Kon massasini qattiq jinslarda 14° burchakdan yuqori va yumshoq jinslarda 18° dan yuqori balandliklarga unumli va xavfsiz ko'tarish uchun lenta yuzasi qovurg'alarga bo'linib yasaladi yoki yuqoridan bosib turuvchi lenta yoki zanjirli to'r ishlatiladi. Ular materialni pastga surilib ketishiga yo'l qo'ymaydi.

Xulosa qilib aytganda, mamlakatimizda tog'-kon va qayta ishlash korxonalarini quvvatlarini oshirish sanoati tizimida konveyer transportining ahamiyati katta hisoblanadi.

### References:

- Атакулов Л.Н., Тошов Ж.Б., Каххаров С.К., Хайдаров Ш.Б. Метод обнаружения обрыва резинотросовых лент в местах ихстыковки // Горный вестник Узбекистана. – Навои, 2018. – №3. – С. 61-65.



2. Атакулов Л.Н. Разработка методов оценки технического состояния и повышение эффективности эксплуатационных параметров крутонаклонных конвейеров.-Навоий, 2019. 3. Атакулов Л.Н., Тошов Ж.Б., Каххаров С.К., Хайдаров Ш.Б., Истаблаев Ф.Ф. Выбор оптимального варианта соединения тросов пристыковки резинотросовых лент // Вестник туринского политехнического университета. -Ташкент, 2018. – №4. – С. 43-46.
4. Атакулов Л.Н., Каххаров С.К., Хайдаров Ш.Б. Выбор оптимального методастыковки резинотросовых конвейерных лент // Горный журнал. – Москва, 2018. – №9. С. 97-101.
- DOI: 10.17580/gzh.